

## MUSIQIY QOBILIYATLAR RIVOJLANISHINING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

No‘monova A’loxon  
*45-maktab musiqa fani o’qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Musiqa bilan shug’ullanish va muayyan natijaga erishish insondan umumiy va maxsus qobiliyatlarning ma’lum bir majmuini (uyg’unligini) talab qiladi. Qobiliyat deganda insonni biror ijtimoiy faoliyat turini muvaffaqiyatli bajarishga layoqatini ifodalarydigan xususiyatlari tushuniladi. Ushbu maqolada musiqiy qobiliyatlar rivojlanishining o’ziga xos xususiyatlari haqida yoritilgan.*

**Kalit so’zlar:** *Musiqa madaniyati, qobiliyat, mashg’ulotlar, esda saqlash, xotira mashqlar.*

Pedagogika fanida qobiliyat tushunchasiga – insonni kamol toptirish uning qobiliyatlarini rivojlantirishdir degan metodologik qoidaga amal qilgan holda ta’rif beriladi. Qobiliyat musiqiy faoliyat uchun eng muhim bo’lgan xususiyatlardandir. Chunki, endigina birinchi sinfga kelgan o’quvchilarni tabiiyki musiqiy eshituvni, qiziqishi, xotirasi, diqqatini, ovoz imkoniyatlari, eng muhimi qobiliyatları turli darajada bo’ladi. Musiqa darslarining eng asosiy faoliyatlaridagi pedagogik jarayon o’quvchilarni yaxlit qamrab olish, ularni amaliy ijrochilik layoqatlarini uyg’unlikda, ma’lum bir barqaror tinglik darajasida shakllantirishni taqazo etadi. Bu ayniqsa qo’shiq kuylash faoliyatida yorqin namoyon bo’ladi. Kuylashda sof unisonga erishish, sozlanish, jo’rnavozlik qilish, ansambilikka erishish, turli murakkablikdagi asarlarni butun sinf jamoasini (xor) “bir butun organizm” tarzida ijro etishlariga erishish, o’quvchilarni musiqiy qobiliyatlarini maksimal darajada yaqinlashtirish, vazifasini ko’ndalang qo’yadi. Musiqiy qobiliyati yaxshi rivojlanmagan bolalarni musiqiy uquvi “sust” bo’ladi. Bu esa musiqiy eshituv (slux) va musiqiy xotirasini sustlashuviga ham salbiy ta’sirini ko’rsatadi.

Shu sababli qobiliyatni shakllantirish va rivojlantirish uchun yashirin qobiliyatlarini yuzaga chiqarish uchun mumkin bo’lgan pedagogik faoliyatni tashkil etish zarur. Mashhur pedagog va psixologlar qobiliyatga inson shaxsining o’ziga xos xususiyati sifatida baho berishadi va uni ma’lum faoliyatlar bilan bog’liq holda qaraydilar hamda tegishli faoliyatsiz umuman qobiliyat bo’lmasligi yoki rivojlanmasligi mumkin deb hisoblaydilar. Bu holni musiqa yo’nalishida ham yaqqol ko’rish mumkin. Ayrim o’quvchilarni musiqiy iqtidorlariga baho berganimizda (musiqiy o’quvi – eshitish, xotirasi, ijrochilik mahorati, o’z taassurotlarini ifodali qilib so’zlab berishi va hokozolar) “qobiliyatli” degan iborani qo’llaymiz. Ovozi tonga tushmaydigan (musiqiy eshituvni “sluxi” - sust), qo’shiq ohangini, aytim yo’lini tezda o’zlashtirmaydigan (musiqiy uquvi – xotirasi sust) hamda o’z fikrlarini mazmunli ifoda etaolmaydigan o’quvchilarga nisbatan “qobiliyatsiz” iborasini ishlatamiz. Qobiliyatlichkeit va qobiliyatsizlik esa bola shaxsi shakllanishining juda ko’p psixologik va

fiziologik omillariga bog’liqdir. Bunda irsiyat, oila muhiti, bola ulg’aygan atrof – muhit, ijtimoiy sharoitlar muhim o’rin tutadi. Inson umuman olganda butkul “qobiliyatsiz” bo’lishi mumkin emas. Har bir shaxs u yoki bu darajada qobiliyatga ega bo’ladi. Bu sifat har bir shaxsda turli darajada zohir bo’ladi. O’z qobiliyatini yaxshi namoyon etaolmaslik ham insonning psixologik holatini natijasi bilan bog’liqliq bo’lishi mumkin. (hayajonlanish, dovdrab qolish, o’ziga ishonmaslik kabi holatlar). Bunday vaziyatlarda o’qituvchi – pedagog bola shaxsini yashrin qobiliyatini yuzaga chiqarishga harakat qilmog’i lozim bo’ladi. Shaxsning yashirin qobiliyatlariga uning o’ziga xos xususiyatlari sifatida qaralganda bu xususiyatlar uning yanada kamol topishiga, ya’ni musiqiy qobiliyatini rivojlanishiga asos bo’ladi.

Musiqqa mashg’ulotlari bola shaxsining psixik faoliyati namoyon bo’lishining o’ziga xos shakllaridan biri ekanligi sababli musiqqa pedagogikasi umumi pedagogika hamda fiziologiya fanlarining ilmiy yutuqlari va xulosalariga tayangan holda ish tutmoqni ma’qul topadi.

Ta’lim bilan rivojlanish o’rtasidagi bog’liqlik murakkab bo’lib, o’quvchilar ma’lum bir faoliyatdagi (musiqiy) kerakli malaka, ko’nikmalarni u yoki bu elementlarini o’zlashtirish ularni qobiliyatları darajasini darrov oshirib qolmaydi. Qobiliyatlarni rivojlanishi o’qituvchining ta’lim jarayonini qanday boshqarish, tashkil etishiga, qolaversa har bir bolani individual o’rganib, shunga ko’ra ularga pedagogik yondashuvlariga bog’liq bo’ladi. Ko’pincha musiqiy qobiliyatlarni rivojlantiraolmaydigan, hatto, ularni rivojlanishiga to’sqinlik qiladigan saviyadagi darslar olib boriladi. Bu ko’pincha musiqqa pedagogikasi va metodikasidan yetarli bilim va malakaga, tajribaga ega bo’lmagan o’qituvchilarda kuzatiladi. Ta’lim jarayonida bolani musiqiy qobiliyatlarini o’sishiga yordam beradigan ish shakllari, usul va vositalarni tanlash, ularni mahorat bilan qo’llash uchun bola shaxsining individual xususiyatlarini yaxshi o’rganish, bilish kerak.

Ma’lumki, musiqiy qibiliyatlar barvaqt, ko’pincha bolalar musiqqa bilan maqsadga muvofiq ravishda shug’ullanishni boshlashdan ancha ilgari yuzaga keladi. Shunga asosan bolalarni musiqqa bilan shug’ullanish jarayonida “qobiliyatli” va “qobiliyatsiz” deb farqlanadi. Lekin, ayrim olimlarning tadqiqotlari va tajriba ishlari to’g’ri yo’lga qo’yilgan ta’lim jarayonida insonda bo’lmagan qobiliyatlarni ham rivojlantirish mumkin ekanligi dalillangan. Shunga ko’ra biz har bir bola musiqqa bilan shug’ullanishi lozim, binobarin musiqiy qobiliyatni faqat musiqqa mashg’ulotlarining maqsadga muvofiq va izchil tizimi orqali shakllantirish va rivojlantirish mumkin deb hisoblashga haqlimiz.

Umumta’lim maktablarining boshlang’ich sinf musiqqa darslarida ayrim musiqiy uquvi, ya’ni, “qobiliyati” sust o’quvchilarni musiqiy qobiliyatini rivojlantirish uchun ularni avvalo yaxshi o’rganish lozim. Bu bolada ko’pincha qo’shiq kuylash, bolalar cholg’u asboblarida chalish, musiqaga ritmik jo’r bo’lish, musiqaga mos harakatlar bajarish jarayonida namoyon bo’ladi.

Musiqiy qibiliyatlar muammosini tahlil qilishda avvalo, ular o’zaro bog’liq, bir – biridan ajralmagan holda mavjud bo’lmaydigan sifatlarni keng majmusidan iboratligini

aytish lozim. Musiqiy qobiliyatlarga musiqani anglash, tasavvur etish, musiqani tinglay olish, muayyan badiiy mazmunni ko’z oldiga keltirish, kuylashda tovushni aniq intonasiya qilish, ritmni his qilish va maxsus ijrochilik bilan bog’liq xususiyatlar kiradi. Bu xususiyatlarni birortasi ta’lim jarayonida “passiv” namoyon bo’lar ekan, bu bolani o’z qobiliyatini yaxshi namoyon qilaolmaganligi yoki shu yo’nalishda “qobiliyati” rivojlanmaganligidan dalolat beradi. Shunday hollarda musiqa o’qituvchisi har bir bolani musiqiy qobiliyatlarini yaxshi o’rganib borishi, ulardagi o’zgarishlarni maxsus daftarchaga qayd etib borishi lozim bo’ladi. Musiqa darslarida o’quvchilarni musiqa tinglashga, qo’shiq kuylashga, ritmik va raqs harakatlarini bajarish, musiqa cholg’u asboblarida chalishga o’rgatish ularni musiqiy qobiliyatlarini kuzatiladi. Shunga ko’ra bolalar bilan individual yoki ularni turli darajadagi guruhlarga bo’lib ish olib borish samarali ish shakllaridan hisoblanadi.

Tabiatan berilgan nasliy qobiliyatni inkor etmagan holda shuni aytish joizki,xar bir jismonan sog’lom bolada musiqiy idrok, musiqiy eshitish, ijrochilik qobiliyatini shakllantirish mumkin. Bu jarayonda bolaning nasliy yoki tabiiy qobiliyati emas, o’qituvchining kasbiy mahorati, darsda qo’llaydigan metodikasi muhim ahamiyat kasb etadi. Albatta, bir xil sharoitda, masalan, musiqa darslarida bir sinfda, bir o’qituvchida ta’lim – tarbiya olayotgan o’quvchilarning o’zlashtirish darajasi har xil bo’ladi. Shuning uchun insonni xarakteri, psixologik, fiziologik imkoniyatlari, qiziqishlarining shakllanish jarayoni juda murakkabdir. Pedagogika fani shu tufayli musiqa o’qituvchilaridan har bir o’quvchining individual xususiyatlarini, musiqiy eshituvni, xotirasi, amaliy ijrochilik xususiyatlarini o’rganib borish, har bir darsda ularni hisobga olgan holda mashg’ulotlarni tashkil etishni talab qiladi.

Bu musiqa darslarida alohida e’tiborga molik, chunki, musiqa mashg’ulotlarining sifat darajasi o’quvchilarni jamoaviy ijrochilik jarayonida yaqqol namoyon bo’ladi.

Musiqiy qobiliyat o’quvchi – yoshlarning ko’proq musiqiy eshituvini rivojlanganligi bilan izohlanadi. Chunki, musiqiy eshituvni (sulxi) rivojlangan bolalarni musiqani idrok etish, xotirasida saqlab qolish layoqatlari shunga mos tarzda shakllanadi. Musiqiy eshitish qobiliyati absolyut va solishtirma bo’lib, absolyut eshitish, idrok, tasavvur, diqqat, hotira kabilar bilan uyg’unlikda insonda tug’ma bo’lib, bunday qobiliyatga ega bo’lgan shaxs yoshligidan musiqiy ohang, tonallik, usullarni tez va oson ilg’ab, qaytarib beraoladi.

Solishtirma qobiliyatga ega bo’lganlar esa asosan eshitgan musiqa asari tonalligini aniq, o’z ovozida aniqlay olmasliklari bilan ajralib turadi. Musiqa darslarida aksariyat hollarda eng qiyin malakalardan biri ham ayrim o’quvchilarda absolyut eshitish qobiliyatini yaxshi rivojlanmagan hisoblanadi. Bunday bolalar ayniqsa qo’shiq kuylash paytida o’qituvchiga jiddiy qiyinchiliklar tug’diradi. Ularni ovozini sozga, ansambllikka uyg’unlashmasligi (tonga tushmasligi) jamoaviy ijro sifatida salbiy ta’sir ko’rsatadi.

Musiqali eshitish qobiliyati tashqi eshitish qobiliyati va ichki eshitish qobiliyatlaridan iborat bo’lib, tashqi eshitish qobiliyatları bu eshitgan musiqani qabul etish bo’lsa, ichki eshitish qobiliyati esa musiqani eshitmasada, fikr yuritish, notani ko’rib, eshitganday

musiqadan ta’sirlanish xususiyatiga egalikdir. Bu o’rinda musiqa o’qituvchisining vazifasi o’quvchi – bolalarning ichki eshitish qobiliyatini rivojlantirish uchun ish olib borishdan iborat bo’ladi. O’quvchini eng avvalo diqqat bilan musiqani tinglashga o’rgatish bu o’rinda eng samarali usullardan hisoblanadi.

Esda saqlash va ko’z oldiga keltirish, mustaqil holda ovozlarni (musiqiy tovushlarni) musiqiy obrazlarni his etish, tushunish, idrok etishga o’rgatish orqali musiqiy qobiliyatni rivojlanishiga erishish mumkin.

Maktabda o’quvchilarga qo’shiq o’rgatishga kirishishda birinchi navbatda musiqiy qobiliyati eng avvalo uni “musiqiy eshituvi”ni tekshirishdan boshlanadi.

Umumta’lim maktablari musiqa madaniyati darslarining jamoaviy ijrochilik jarayoni o’quvchilarni eng muhim musiqiy qobiliyatlaridan musiqiy eshituvni rivojlantirish eng o’tkir vazifalardan hisoblanadi. Chunki, musiqiy eshituv, asarni idrok etish, xotirada saqlab qolish, nazariy bilimlarni amaliyotda ifoda etish mana shu jarayonda yorqin namoyon bo’ladi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, musiqiy qobiliyatlar majmuini (tinglash, kuylash, notaga qarab o’qish, eslab qolish, cholg’uchilik) o’quvchilarda shakllantirib borish musiqa sohasidagi barcha mutaxassislar uchun birdek zarur. Chunki, bu qobiliyatlarni yaxshi rivojlanmaganlik holatlarini ba’zan katta yoshdagilar, jumladan kolliej va oliv o’quv yurtlari talabalari orasida ham uchratish mumkin. Musiqa pedagogikasi va psixolog olimlarning ilmiy – tadqiqotlarida umuman qobiliyatsiz kishi bo’lmasligi, lekin, ayrim kishilarda ularni erta yoshdan yorqin namoyon bo’lishi (tug’ma iste’dod sifatida baholashda) yoki aksincha ayrimlarda ularni “sust” rivojlanishi haqida fikrlar bildirib o’tilgan. Bular juda murakkab psixologik omillar bilan bog’liq bo’lib, ba’zan insonlar o’zida mavjud qobiliyatlarni ham ko’pchilik oldida. Shuningdek, dars jarayonida namoyon qilaolmaslik holatlari uchraydi. Bunga ba’zi insonlarda (o’quvchilarda) tortinchoqlik, ko’pchilikni oldida “sust” bosish, uyatchanlik, o’z-o’ziga ishonch hissini yaxshi rivojlanmaganligi kabilar sabab bo’ladi. Bunday vaziyatlarda musiqa o’qituvchilari pedagoglik bilan bir qatorda yuqori darajadagi psixolog – pedagog bo’lishi muhim ahamiyat kasb etadi. O’qituvchi har bir bolani doimiy ravishda individual tarzda sinchklab o’rganib borishi, ulardagи qobiliyatlarni aniqlash, ruyobga chiqarish, o’rinli usul va vositalarni qo’llab ish tutishi, o’quvchida avvalo o’z – o’ziga ishonch hissini tarbiyalash, uni rag’batlantirish, sahnaga, ko’pchilik oldiga takror va takror chiqarish muhim rol o’ynaydi. Musiqa mashg’ulotlarini pedagogik va metodik jihatdan to’g’ri tashkil qilinishi, uyuştirilishi, darslarni qiziqarli, turli metod, usul, ko’rgazmali va texnik vositalardan unumli foydalanib o’tkazish o’quvchilarda darsga qiziqishlarini oshishiga olib keladi. Qiziqish esa o’z navbatida bolalarda uni o’rganish, kuylash, nazariy va amaliy ijrochilik ko’nikma va malakalari yetarli darajada o’rganishga xoxish – istak, rag’batni kuchayishiga sabab bo’ladi. Aynan mana shu omillar ularning musiqiy qobiliyatlari shakllanishi jarayonini tezlashuviga ham samarali ta’sir ko’rsatadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. H. Nurmatov, N. Norxo’jayev. Musiqa alifbosi. 1-sinf darsligi. –T;- G’.G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti- matbaa ijodiyot uyi, 2009 yil.
2. H. Nurmatov, N. Norxo’jayev. Musiqa 2-sinf darsligi, -T;- G’.G’ulom nomidagi Adabiyot san’at nashriyoti- matbaa ijodiyot uyi, 2010 yil.
3. H. Nurmatov, N. Norxo’jayev. Musiqa 3-sinf darsligi, -T;- G’.G’ulom nomidagi Adabiyot san’at nashriyoti- matbaa ijodiyot uyi, 2010 yil.
4. O. Ibrohimov, O. Yo’ldoshev. Musiqa. 4-sinf uchun darslik. Toshkent.G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008- yil.